FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARINI TA'MINLASH VA HIMOYA QILISHNING NAZARIY-AMALIY MASALALARI

Zaytova Gulchexra Jantoreevna
zaytovagulchexra@gmail.com
+998907140015

Hozirgi dunyoda inson huquqlari to‘g‘risidagi masala barcha davlatlarning asosiy masalasidir. O‘tmish tarixga nazar solsak, inson o‘z haq-huquqlari uchun har bir davrda kurashib kelgan. Odamlarning o‘z huquqlari uchun kurashi davomida insonning munosib hayot kechirish huquqi himoya qilingan ko‘plab g‘oyalar, nazariyalar va ta’limotlar vujudga keldi va rivojlandi. Sharqning mashhur huquqshunoslari orasida Imom Burhoniddin al-Marg‘inoniy alohida o‘rin tutadi. 1178-yilda alloma o‘zining 4 jild 53 fasldan iborat bo‘lgan “Hidoya” (To‘g‘ri yo‘l) asarini yozib tugatdi. Bu asarda ulamo kishilar o‘rtasidagi munosabatlar qanday bo‘lishi kerakligini qonun asosida ko‘rsatib berdi. Ko‘p asrlar davomida mana shu kitob huquqshunoslik (fiqh) sohasi bo‘yicha qo‘llanma bo‘lib keldi. Uyg‘onish davri mutafakkirlari ham Burhoniddin al-Marg‘inoniyning har bir insonning tabiiy huquqlariga, u ana shu mamlakat fuqarosi ekanligi yoki aksincha ekanligidan qat’i nazar, bo‘ysunishini qonunlashtirish va ta’minlash zarurligi haqidagi g‘oyasini qo‘llab-quvvatladilar.

Mana shu davrdan boshlab davlatga mutlaqo boshqacha - shaxs huquqlarini oyoq osti qiladigan institut sifatida emas, balki uning inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi nuqtai nazaridan qaralmoqda. Tabiiy huquqlar g‘oyasi dunyodagi turli davlatlarning Konstitutsiyaviy huquqida o‘z ifodasini topgan. Inson eng oliy qadriyat ekanligi asosiy qonun bilan O‘zbekistonda ham ta’kidlangan. Shunday qilib, Konstitutsiyamizda insonning huquq va erkinliklarini ta’kidlash, ularga bo‘ysunish va ularni himoya qilish davlat majburiyati degan qoida mustahkamlab qo‘yilgan. Unda "butun dunyoviy mavjudot ichidagi eng ulug‘i-inson" ekanligi yaqqol mujassamlashgan. Insonni ulug‘lash, uni himoya qilish va har tomonlama kamol toptirish Konstitutsiyamizning asosiy g‘oyasiga aylantirilgan. Bu esa, Konstitutsiyamizning eng katta va muhim qismi “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan II bo‘limidir.

Konstitutsiyamizda nafaqat fuqarolarning huquqlari belgilab qo‘yilgan, balki xorijiy davlatlarning hamda fuqaroligi bo‘lmagan insonlarning asosiy huquqlari, erkinliklari to‘g‘risidagi qoidalar ham mustahkamlangan. Ushbu qoidalar, prinsiplar fuqarolar o‘z huquq va erkinliklaridan to‘g‘ri foydalanishi hamda zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni halol, vijdonan bajarishi shartligini hamda davlat organlari, mansabdor shaxslar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli va samarali amalga oshirish uchun mas’ul ekanligini bayon etadi. Bu qoidalar qonuniylik, fuqarolarning umumiy tengligi, fuqaro va davlatning bir-biriga bo‘lgan huquq va majburiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarning mushtarakligidan iborat. Insonlarning qonun oldida kelib chiqishidan qat’i nazar tengligi huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VI-bobi 22-24-moddalari “Fuqarolik” deb nomlanib, ushbu moddalarda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolikka oid qoidalar bayon etilgan. Fuqarolik masalasi siyosiy masala. Ibtidoiy jamiyatda fuqarolik tushunchasi bo‘lmagan, chunki unda davlat kabi tashkilot ham bo‘lmagan. Fuqarolik tartiblari davlat va huquq kabi ijtimoiy hodisalar paydo bo‘lishi natijasida shakllanib, bunda davlat qonunlar orqali odamlarni o‘z fuqarolari sifatida tan olish asoslarini belgilay boshlagan. Shaxs va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat fuqarolik tartiblari bilan belgilanadi.

Fuqarolik - bu shaxsning muayyan davlatga mansubligini bildiradigan, shaxs bilan davlat o‘rtasidagi barqarorlik, siyosiy, huquqiy aloqalarni belgilaydigan tushunchadir. Bu aloqalar davlat va shaxsning o‘zaro huquq va majburiyatlarini belgilashda namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik insonning davlat bilan huquqiy aloqalarini anglatadi. Davlat o‘z qonunlarida insonning huquqiy hokimiyatini, ya’ni insonning davlatga, uning organlariga va boshqa shaxslarga bo‘lgan o‘rnini belgilaydi.

Fuqaro hisoblangan shaxs o‘z davlati hududida ham, xuddi shuningdek, undan tashqarida ham uning himoyasi va qaramog‘ida bo‘ladi hamda fuqaroga mustahkamlab qo‘yilgan barcha huquqlardan to‘liq foydalanadi. O‘z navbatida fuqarolar o‘z davlati qonunlariga bo‘ysunishlari, o‘z fuqarolik burch va majburiyatlarini bajarishlari shart.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida 2020-yil 13-martda “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Ushbu huquqiy hujjatlarda O‘zbekistonda fuqarolik masalalari, insonning fuqarolikka ega bo‘lish asoslari, fuqarolikni tasdiqlovchi hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining tugatilishi, ota-onaning fuqaroligi o‘zgarganda va farzandlikka olinganda

bolalarning fuqaroligi, fuqarolik to‘g‘risida ishlarni yurituvchi O‘zbekiston Respublikasining davlat kengashlari va ularning vakolatlari, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va takliflarni ko‘rib chiqish, fuqarolikka oid qarorlarning ijrosi, mansabdor shaxslarning fuqarolik masalalariga oid qonunga xilof xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish, xalqaro shartnomalarning qo‘llanilishi kabi eng muhim masalalar bayon etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasiga binoan O‘zbekiston hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlovchi asosiy hujjat pasport hisoblanadi. Pasport (italyan tilidan olingan bo‘lib, “portga kirish uchun ruxsatnoma”) - fuqarolikni tasdiqlovchi hujjat. Pasport olingunga qadar tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma yoki shaxsning fuqaroligiga doir ma’lumotlar mavjud bo‘lgan hujjat uning fuqaroligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasida Pasport tizimi to‘g‘risida”gi qonunga asosan O‘zbekiston Respublikasining 16 yoshga to‘lgan barcha fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti berilishi shart, deb ko‘rsatilgan. Pasport Respublika Ichki ishlar organlari tomonidan beriladi.

O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har bir shaxs fuqaro bo‘lish huquqiga ega. “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lish quyidagi asoslar bo‘yicha amalga oshiriladi:

1. O‘zbekiston fuqarolaridan tug‘ilgan bolalar ular mamlakat hududida yoki chet elda tug‘ilgan bo‘lsa ham O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Agar ota-onalardan biri O‘zbekiston fuqarosi, ikkinchisi chet el fuqarosi bo‘lsa, tug‘ilgan bola O‘zbekistonda tug‘ilsa O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Agar shunday ota-onadan bola mamlakatimizdan tashqarida tug‘ilsa, uning fuqaroligi ota-onaning kelishuviga ko‘ra belgilanadi. Ota-onasi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan tug‘ilgan bolalar O‘zbekistonda tug‘ilgan bo‘lsa, O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Otasi noma’lum, onasi ma’lum bo‘lib, O‘zbekistonda tug‘ilgan bola O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

2. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘z xohishiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun ular quyidagi shartlarni bajarishlari shart:

a) chet el fuqaroligidan voz kechganda: bunda chet el fuqarolarini O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror qabul qiladi. Chet el fuqarosi esa o‘z fuqaroligining

o‘zgartirilganligi to‘g‘risida mazkur davlatning ishtirokini ko‘rsatuvchi hujjatni taqdim etishi shart;

b) chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududida kamida besh yil yashagan bo‘lsa, ya’ni oxirgi besh yil davomida O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganligi va qonuniy yashash manbalari mavjudligi tasdiqlangan holda;

v) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olsa va bajarsa,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi oldida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasida ulkan yutuqlari bo‘lgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasini qiziqtiradigan kasb yoki mutaxassislikka ega bo‘lgan ayrim shaxslarga nisbatan ushbu moddaning a, b va v bandlaridagi talablar hisobga olinmasligi mumkin. Lekin, ularda albatta O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olishi va bajarishi shart.

Agar shaxs:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishni yoqlab chiqqan bo‘lsa;

Xizmati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy prinsiplariga zid bo‘lgan partiyalar va boshqa tashkilotlarga a’zo bo‘lsa;

O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq jazolanadigan xatti-harakatlari uchun ozodlikdan mahrum etilgan va ushbu jazoni o‘tayotgan bo‘lsa;

uni O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risidagi iltimosi bajarilmaydi.

Fuqarolik to‘g‘risidagi qonunning 23-25-moddalarida: O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining tugatilishi va yo‘qolishi asoslari belgilangan. Shaxsning iltimosiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqarilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish, fuqarolikni tiklash, fuqarolikdan chiqish va uni yo‘qotish masalalari Prezident farmoni bilan rasmiylashtiriladi. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalari bo‘yicha qarorlar ijrosi ustidan nazorat Prezident huzuridagi Fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqqan kundan e’tiboran O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo‘qotiladi.

Mamlakatimizda fuqarolarimizdan tashqari chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ham huquq va erkinliklari teng himoya qilinadi.

Chet el fuqarolari - O‘zbekiston hududida yashayotgan, boshqa xorijiy davlatlar fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxslar. Ularning O‘zbekistonda bo‘lishiga turli sabablar bor.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmagan va o‘zining chet el fuqarosiga mansubligini ko‘rsatuvchi dalillari bo‘lgan shaxslar chet el fuqarolari deb e’tirof etiladi.

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning huquqiy ta’rifi “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida quyidagicha belgilangan:

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan huquq va erkinliklardan, shuningdek o‘zlarini himoya qilish uchun sud organlariga murojaat qiladilar. Shu vaqtning o‘zida O‘zbekiston fuqarolari bilan bir xil vazifalarni bajaradi. Respublikamizda doimiy yashovchi chet el fuqarolarining huquq va erkinliklari vaqtincha yashovchilarga nisbatan kengroq bo‘ladi." Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar sodir etgan huquqbuzarliklari uchun mamlakatimiz fuqarolari bilan teng asosda javobgar bo‘ladi va O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan javobgarlikka tortiladi. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ayrim huquqlari cheklab qo‘yiladi. Ular vakillik organlariga deputat bo‘lib saylana olmaydilar, saylovga, referendumlarga qatnasha olmaydilar. Ular Qurolli Kuchlar safida, Davlat xavfsizlik xizmatida, ichki ishlar organlarida ishlashi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi Qonuni (Yangi tahriri). O‘RQ-610-son, 2020-yil 13-mart.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. - Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2018.
4. Saidov A.X. Inson huquqlari xalqaro huquqi: Darslik. - Toshkent: Konsauditinform-Nashr, 2006. – 480 b.
5. Tadjixanov U., Saidov A.X. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2 tomlik. - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998.
6. Muhammedov O.H. Inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari: Monografiya. - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.

7. Ismoilov Sh.A. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish // *Huquqiy tadqiqotlar jurnali*. - 2022. – №4. – B. 45–52.